

DAVLAT MOLIVAVIY SIYOSATINING IJTIMOY TENGLIKNI TA'MINLASHDAGI ROLI

Zoxidova Durdona

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, talabasi

Annotatsiya. Mazkur tezisdavlat moliyaviy siyosatining jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta'minlashdagi ahamiyati va uning iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, byudjet siyosati, soliq tizimi va ijtimoiy himoya dasturlari orqali daromadlar tengsizligini kamaytirish mexanizmlari yoritib beriladi. Tadqiqot doirasida O'zbekistonda ijtimoiy tenglikni mustahkamlashga qaratilgan moliyaviy siyosatning ustuvor yo'nalishlari va istiqbollari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Siyosat, tenglik, davlat, rol, byudjet, mexanizm, soliq, moliya, natija, aholi, mablag'.

Hozirgi zamon iqtisodiy rivojlanish jarayonida ijtimoiy tenglikni ta'minlash davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jamiyatda daromadlar o'rtasidagi tafovutning ortib borishi, ijtimoiy qatlamlar o'rtasida imkoniyatlarning teng taqsimlanmasligi iqtisodiy barqarorlikka ham, ijtimoiy barqarorlikka ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy siyosat ijtimoiy tenglikni ta'minlash, aholi turmush darajasini yaxshilash hamda iqtisodiy rivojlanish natijalarini jamiyat a'zolari o'rtasida adolatli taqsimlashda muhim rol o'ynaydi.

Davlat moliyaviy siyosati orqali byudjet mablag'larini taqsimlash, soliq tizimini tartibga solish, ijtimoiy himoya dasturlarini moliyalashtirish hamda kam ta'minlangan aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari amalga oshiriladi. Bu jarayonlar orqali ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy nafaqalar, subsidiyalar va boshqa ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish imkoniyati yaratiladi. Ayniqsa, iqtisodiy rivojlanish sharoitida aholi daromadlari o'rtasidagi tafovutni kamaytirish hamda teng imkoniyatlar yaratishda davlat moliyaviy siyosatining ahamiyati yanada ortib bormoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ham ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash hamda daromadlar tengsizligini kamaytirishga qaratilgan keng ko'lamlislohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tezisdavlat moliyaviy siyosatining ijtimoiy tenglikni ta'minlashdagi ahamiyati, uning asosiy mexanizmlari hamda ushbu yo'nalishda yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi.

Davlat moliyaviy siyosati jamiyatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bilan bir qatorda ijtimoiy tenglikni mustahkamlashda ham muhim vosita hisoblanadi. Moliyaviy siyosat orqali davlat byudjet mablag'larini taqsimlaydi, soliq tizimini tartibga soladi hamda ijtimoiy himoya dasturlarini moliyalashtirish orqali aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Iqtisodiy rivojlanish jarayonida daromadlar o'rtasidagi tafovut, ayrim ijtimoiy qatlamlarning moliyaviy imkoniyatlari cheklanganligi kabi muammolar mavjud bo'lib, ular davlat moliyaviy siyosatini yanada takomillashtirishni talab etadi. Quyida ijtimoiy tenglikni ta'minlash jarayonida uchraydigan asosiy muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi.

Aholi daromadlari o'rtasidagi tafovutning mavjudligini birinchi muammo sifatida olishimiz mumkin. Jamiyatda turli ijtimoiy qatlamlar o'rtasida daromadlar miqdorining keskin farq qilishi ijtimoiy tenglikni ta'minlashga to'sqinlik qiladi. Ayrim aholi guruhlari

barqaror daromad manbalariga ega bo'lmaganligi sababli ijtimoiy xizmatlardan to'liq foydalanish imkoniyatiga ega emas. Bunday holat iqtisodiy rivojlanish natijalarining jamiyat a'zolari o'rtasida teng taqsimlanmasligiga olib keladi.

Davlat tomonidan samarali byudjet siyosatini yuritish, ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam dasturlarini kengaytirish hamda kam ta'minlangan aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlash orqali daromadlar tafovutini kamaytirish mumkin. Progressiv soliq tizimini takomillashtirish ham yuqori daromadli qatlamlardan tushadigan soliq tushumlarini ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishga yo'naltirish imkonini yaratadi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ikkinchi muammomiz ijtimoiy himoya tizimining ayrim hollarda yetarli darajada samarali ishlamasligi hisoblanadi. Ijtimoiy tenglikni ta'minlashda davlat tomonidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy himoya dasturlari muhim ahamiyatga ega. Biroq ayrim hollarda ijtimoiy yordamning manzilli yetkazilmasligi yoki moliyaviy resurslarning samarasiz taqsimlanishi tizim samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish uchun manzilli ijtimoiy yordam mexanizmlarini rivojlantirish, raqamli texnologiyalar orqali ijtimoiy yordam oluvchilarni aniq aniqlash hamda byudjet mablag'larining samarali taqsimlanishini ta'minlash zarur. Zamonaviy axborot tizimlari yordamida ijtimoiy yordamga muhtoj aholining real ehtiyojlarini aniqlash ijtimoiy dasturlarning samaradorligini oshiradi.

Uchinchi muammo sifatida, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan teng foydalanish imkoniyatining cheklanganligini olishimiz mumkin. Ta'lim va sog'liqni saqlash sohalari jamiyatda teng imkoniyatlar yaratishda muhim rol o'ynaydi. Biroq ayrim hududlarda ushbu xizmatlar infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi yoki moliyaviy resurslarning yetishmasligi sababli aholi o'rtasida imkoniyatlar tengsizligi yuzaga kelishi mumkin.

Davlat byudjeti orqali ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini moliyalashtirishni yanada kengaytirish, infratuzilmani rivojlantirish hamda barcha hududlarda sifatli xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaratish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, qishloq hududlarida ta'lim muassasalari va tibbiyot xizmatlarini rivojlantirish orqali aholining ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Bu esa jamiyatda uzoq muddatli ijtimoiy tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi. Davlat moliyaviy siyosatini samarali amalga oshirish orqali jamiyatda daromadlar o'rtasidagi tafovutni kamaytirish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish hamda barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlarni yaratish mumkin.

Davlat moliyaviy siyosati jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta'minlash, aholi farovonligini oshirish hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy siyosat orqali davlat byudjet mablag'larini samarali taqsimlash, soliq tizimini tartibga solish va ijtimoiy himoya dasturlarini moliyalashtirish orqali daromadlar o'rtasidagi tafovutni kamaytirish imkoniyati yaratiladi. Ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish orqali jamiyatda teng imkoniyatlarni ta'minlashga erishiladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, aholini qo'llab-quvvatlash hamda daromadlar tengsizligini kamaytirishga qaratilgan moliyaviy siyosat izchil amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishni kengaytirish, manzilli yordam mexanizmlarini rivojlantirish hamda byudjet mablag'laridan samarali foydalanish ijtimoiy tenglikni mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Davlat moliyaviy siyosatini yanada takomillashtirish, ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish orqali jamiyatda ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanishni ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva, M.X. (2025) 'Davlat moliyasi barqarorligini taminlashda pul-kredit siyosatining ahamiyati', *Наука и инновация*, 3(19), pp. 125–127.
2. Abdug'afforov, Sh.T. (2023) Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat moliyaviy siyosatining roli. "Iqtisodiy fanlar" jurnali, №2, pp. 45–53.
3. Ahmedova, M.M. (2020) Davlat moliyaviy boshqaruv tizimini raqamlashtirish yo'nalishlari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
4. Baqoyev, S.B. (2024) 'Davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashda pulkredit siyosatining ahamiyati', *Экономика и социум*, 8(123).
5. Ermatova, S.A. (2022) 'Moliya tizimi va uning ahamiyati', *ORIENSS*, 4.
6. Habibjonov, U. (2024) O'zbekistonda moliyaviy siyosat: o'tmishi, buguni va kelajagi. *Nordic_Press*, 3(0003).
7. Inomjon, J. & Abramotov, E.T. (2025) 'Davlat moliyaviy nazoratini samarali tashkil etishda g'aznachilikning roli va huquqiy bazasi', *Science and Education*, 8.
8. Kamolidinovich, S.S. (2025a) 'Davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy asoslari', *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR*, 2(1), pp. 892–897.

SUN'IY INTELEKT VA KRAUDFANDING PLATFORMALAR ORQALI TADBIRKORLIKNI MOLIALASHTIRISH HAMDA BANDLIKNI TA'MINLASH

Hamdamov Shavkat

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Moliya va moliyaviy texnologiyalar"
kafedrası professori, PhD

Batirov Farxad

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Tadqiqotda sun'iy intellekt va kraudfanding platformalar orqali tadbirkorlik faoliyatini molialashtirish hamda aholi bandligini ta'minlash masalalari o'rganiladi. Sun'iy intellektni iqtisodiyotning barcha sohalarida biznes jarayonlarini modernizatsiya qilish, yangi zamonaviy ish o'rinlari shakllari hisobiga bandlikni ta'minlash, kraudfanding platformalar orqali molialashtirishni tashkil qilish hamda tadbirkorlik loyihalarni amalga oshirishga yordam beradi. Mualliflar sun'iy intellektning bir qator iqtisodiy muammolarni, jumladan kraudfanding platformalar orqali pul mablag'larini jalb qilishda yuqori ijobiy salohiyatini aniqladilar. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlikni molialashtirish jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish kapitalga bo'lgan talabni qondirish imkoniyatini oshiradi va natijada aholi bandligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar poydo bo'ladi, iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini jadallashtiradi, tadbirkorlik rivojlanishi hamda boshqa jihatlar kuzatilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt (SI), kraudfanding, tadbirkorlik, molialashtirish, bandlik.